

8 – sinf Geografiya 1-CHSB demo

1. Mustaqillik yillarida qaysi mamlakatlar o'rtasida temiryo'l qurilgach, O'zbekiston undan tashqi iqtisodiy aloqalarida foydalandi?

A) Turkiya-Eron B) Qozog'iston-Qirg'iziston C) Turkmaniston-Eron. D) Eron-Rossiya

2. Tugamaydigan tabiiy resurslar xo'jalikning qaysi tarmoqlari uchun xomashyo vazifasini bajaradi?

A) Sanoat va turizm

B) Energetika va qishloq xo'jaligi

C) qishloq xo'jaligi va turizm

D) Kundalik ehtiyoj va qishloq xo'jaligi

3. Samarqand viloyati aholisi 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 3420000 kishini tashkil etgan. Jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib viloyat aholisi yil oxirida qancha bo'lganligini toping.

1. Tug'ilish (har 1000 kishi hisobida)	19
2. O'lim (har 1000 kishi hisobida)	16
3. Emigratsiya (har 1000 kishi hisobida)	8
4. Immigratsiya (har 1000 kishi hisobida)	4

A) 3433680 kishi B) 326800 kishi C) 345700 kishi D) 13680 kishi

4. Mamlakat aholisining yosh va jins tarkibi haqida berilgan mulohazalardan qaysilari to'g'ri?

1. Aholining asosiy qismini bolalar tashkil etadi.

2. Ayollar va erkaklar salmog'i teng.

3. Mamlakatda mehnatga yaroqli aholi soni ko'p

4. Mustaqillikdan to hozirga qadar aholining umr davomiyligi pasaygan.

5. O'zbekiston aholisining yosh tarkibida qariyalar soni bolalar sonidan ko'p.

A) 2, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 2, 4, 6

5. Qishloq aholi punktlarini aholi soni bilan o'zaro moslashtiring.

1. Yirik aholi punktlari	a) Aholisi 1000 kishiga yaqin
2. O'rta aholi punktlari	b) Aholi soni 1000-3000 kishi atrofida
3. Kichik aholi punktlari	c) aholi soni 3000-5000 kishi
4. Katta aholi punktlari	d) Aholi soni 5000 dan ortiq

A) 1-b, 2-a, 3-d, 4c

B) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c

C) 1-a, 2-b; 3-c, 4-d

D) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c

6. Ishlab chiqarishning asosan bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan tashkiliy shakli.. deyiladi.

A) Kooperativlashuv B) Markazlashuv C) Ixtisoslashuv D) Kombinatlashuv

7. Hozirgi vaqtda O'zbekiston sanoatida yetakchi bo'lgan sanoat tarmoqlarini ajrating.

1. Yengil sanoat 2. Kimyo sanoati 3. Metallurgiya va mashinasozlik 4. Elektroenergetika sanoati 5. Oziq-ovqat sanoati 6. Yoqilg'i sanoati

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 2, 3, 6 D) 1, 4, 5

8. 8 kilogramm yonuvchi slanes yonganda hosil bo'lgan issiqlik miqdori necha kilogramm qo'ng'ir ko'mir yondagi issiqlik miqdoriga teng bo'ladi? (Kaloriya hisobida)

A) 3,8 kg B) 5,4 kg C) 6,1 kg D) 2,6 kg

9. Xaritada 1- raqami bilan qaysi Neft-gaz mintaqasi tasvirlangan?



A) Buxoro-Xiva B) Ustyurt C) Janubi-g'arbiy Hisor D) Surxondaryo

10. Tashish qulay va arzon bo'lgan xomashyoga ega bo'lgan IES larni joylashtirishda qaysi omil yetakchi o'rinni egallaydi?

A) Transport B) Iste'molchi C) Xomashyo D) Malakali kadrlar